



ZAMONAVIY G'ARB PSIXOLOGIYASI VA ISLOM DINI NUQTAI NAZARIDAN INSON SHAXSIGA TA'RIF

I. Arabov

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8320667>

ARTICLE INFO

Received: 28th August 2023
Accepted: 01st September 2023
Online: 06nd September 2023

KEY WORDS

Shaxs, nafs, ruh, qalb, xulq-atvor.

ABSTRACT

Zamonaviy fanlardan sanalmish psixologiyada shaxs tushunchasi mazkur sohani tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Inson zoti tabiatan jismoniy va metafizik (ruhiy) xususiyatga ega bo'lganligi sabab ham o'ta murakkab mavjudotdir. Jismoniy xususiyatga kelsak, psixologiya inson zoti va uning shaxsiyatini o'rganishni o'z ichiga qamrab olsa, ruhiy tomondan u shaxsning qalbi, aqli (ongi) va ruhiyati kabi ko'rinmas narsalarni ham o'rganadi. Hozirda islom dunyosi olimlari ham inson shaxsiyatini o'rganish bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlarni olib borishmoqda va bu boradagi adabiyotlar ham kun sayin ko'payib bormoqda. Maqolada ushbu olimlarning qarashlariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Zamonaviy psixologiyada shaxsning umumiy kelishilgan, ya'ni bir to'xtamga kelingan ta'rifi mavjud emas. Shaxs psixologiyasi bo'yicha shug'ullanuvchi olimlar uni (ya'ni shaxsni) avvalo o'zlarining nazariy yo'nalishlari asosida hamda qolaversa, faqat shaxsiyatning ayrim tomonlarini tahlil qilish orqali ba'zi bir ta'riflarni berishadi. Shaxsiyatni aniqlash muammosi biz bir nechta masalalar bilan shug'ullanayotganimizdan kelib chiqadi. Chunki shaxsiyat ko'plab o'lchovlar va sababchi omillarni o'z ichiga oladi. Har bir nazariya shaxs psixologlari hal qilmoqchi bo'lgan ulkan jumboqning go'yo bir qismidek. Biroq, shuni aytish mumkinki, ko'pchilik nazariyotchi olimlar kamida uchta savolni tushuntirishga harakat qilishadi. Bular: qaysi narsa hamma odamlar uchun umumiy va nima ba'zilar uchun umumiy xarakterga ega hamda odamlar bir-biridan nimasi bilan farq qiladi? Bu savollar odatda odamlar o'rtasidagi o'ziga xoslik va farqlarga hamda ularning tabiatiga doir hal qiluvchi so'rovlarga tegishli hisoblanadi.

"Shaxs" atamasi lotincha "persona" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "niqob" degan ma'noni anglatadi. Bundan anglashiladiki, shaxsiyat – insonning tashqi xususiyatlarini ifodalaydi. Biroq, ko'pchiligimiz shaxsiyat insonning tashqi xatti-harakatidan ham ko'ra ko'proq narsani ifoda etadi, deb o'ylaymiz. Umuman olganda, bu (ya'ni shaxsiyat) doimiy va insonga xos bo'lgan xususiyatlar sifatida qaraladi. Shuningdek, inglizcha "personality" (o'zbek tilidagi "shaxs" yoki "shaxsiyat") atamasi, shaxsning kuzatilmaydigan boshqa xususiyatlarini ham



qamrab oladi. Nega insonlar turfa xil bo'lishadi, bunga sabab nima? degan mazmundagi munozara tabiat – tarbiya, (ixtiyoriy) iroda – determinizm,¹ optimizm – pessimizm², o'tmish – hozirgi zamon, o'ziga xoslik (alohidalik) – universallik va muvozanat – o'sishni qamrab oladi.

Ollportning ta'rifi odatda juda tushunarli deb hisoblanadi va u inson shaxsiyati haqidagi ko'pgina zamonaviy matnlarda keltirib o'tilgan. Ollportning fikriga ko'ra, shaxsiyat – “individning o'ziga xos xatti-harakati (xulq-atvori) va fikrini belgilaydigan psixofizik tizimlarning dinamik tuzilmasidir”. Ollportning ta'kidlashicha, shaxsiyat – vaqt o'tishi bilan barqarorlashadigan, lekin o'zgarish ehtimoli ham bo'lgan ichki xususiyatlar to'plamidir. Bu o'zgarishni bashorat qilish mumkin, chunki barcha odamlarning asosiy (yoki umumiy) tabiati bir xil bo'lib qolaveradi. Ollport uchun shaxsiyat – aql va jismoniy qobiliyatning mahsuli sanaladi. Ammo u ba'zi tipik xususiyatlarga ega bo'lsa-da, lekin odamdan odamga farq qiladi. E'tibor bering: bu ta'rif islom nuqtai nazaridan muhim bo'lgan shaxsiyatning metafizik determinantlarini (asoslarini) e'tiborsiz qoldiradi. Shaxs oshkora va yashirin xatti-harakatlardan iborat. Ochiq-oydin ko'rinib turuvchi xatti-harakatlar obyektiv usullar bilan o'rganilishi mumkin bo'lsa-da, lekin fikr va his-tuyg'ular kabi yashirin holatlar faqat shaxsga xosdir va ularni obyektiv ravishda o'rganishning imkoni yo'q. Ko'pincha instinktlar va ongsizlik sohasi kamdan-kam holatda insonga bo'ysunadi. Bu esa o'z navbatida nazariyotchiga mazkur hodisalarni o'rganish va tasvirlashni qiyinlashtiradi. Shaxs mavzusini muhokama qilishda odatda biz individual farqlarga va shaxsning psixologik strukturasi, ya'ni qaysi psixologik tarkibiy qismlardan iboratligiga, ular qanday ishlashi va nima ularga ta'sir qilishi mumkinligiga qiziqamiz. Garchi bu savollar oddiy ko'rinsa-da, ular ko'pincha tugamaydigan falsafiy bahs-munozaralarga sabab bo'ladi. Agar savollar Qur'onda keltirilganidek, transsendental³ nuqtai nazardan tekshirilmasa, aniq bir javobga ega bo'linmaydi. Garchi G'arb va Sharqning diniy an'analari shaxsga nisbatan o'ziga xos transsendental qarashlarga ega bo'lsa-da, bu bizning islom dini nuqtai nazarini taqdim etishga urinishdir (boshqa dinning nuqtai nazarini buzmaslik uchun). Shuningdek, har qanday bosqichda ham sintez jarayonida Islom (yoki Qur'on)ning metafizik asoslari va klinik-psixologik modellarga xalal yetmasligi zarur.

“Shaxsiyat” haqidagi mavzu yoki asosan “men” degan ma'noda ishlatiluvchi klassik termin bo'lmish “nafs” so'zi – Psixologiya sohasi (yoki fakulteti) talabalari uchun o'ta muhimdir. Chunki, bu yerda talabalar bizning xatti-harakatlarimiz va fikrlash jarayonlarimizga aynan qaysi omillar ta'sir ko'rsatishini o'rganadilar. Musulmon talabalar shaxsiyat tushunchasini umuminsoniy voqelikning bayoni bo'lgan Qur'on haqiqatiga ko'ra (qayta) ko'rib chiqishlari kerak bo'ladi. Qur'on ham, hadis ham tabiat mavzusini yetarlicha yoritib bera oladi. Biz ham mazkur mavzuda ularda qanday ma'lumotlar borligini o'rganishga

¹ Barcha hodisalarning o'zaro obyektiv qonuniy aloqadorligi va sababiy bog'lanishi to'g'risidagi falsafiy ta'limot. Indeterminizmning aksi. Determinizmning mazmuni sababiyat tushunchasida ifodalanadi, ya'ni bunda bir hodisa (sabab) muayyan sharoitda zaruriyatni tug'diradi, bu esa boshqa hodisa (oqibat)ni vujudga keltiradi. U inson ongiga bog'liq emas.

² Optimizm – nekinlik, hayotga ijobiy nuqtai nazardan qarash. Pessimizm esa – dunyoga, hayotga g'amginlik, umidsizlik bilan qarash, kelajak yaxshi bo'lishiga ishonmaslik; hamma narsani qora rangda tasvirlash.

³ Haddan tashqari, katta, chegarasiz, mubolog'ali.



intilishimiz kerak. Haqiqiy musulmon uchun ko'zga ko'rinmaydigan nomoddiy narsa (masalan, ruhiyat), zohiran ko'rinib turuvchi moddiylikdan ko'ra muhim hisoblanadi. Zero, insonning ruhiy-ma'naviy olami jismoniylikdan muqaddam turadi. Islomda ilm – Allohning vahdoniyatidan olingan haqiqat (birligi)ga asoslanadi. Alloh haqdir. Shunday ekan, vahiy ham – Uning haq kalomidir.

Qolaversa, inson zotining tafakkur mahsuli bo'lgan har qanday nazariy bilim – gohida haq (rost, ishonchli) bo'lsa, ayrim hollarda esa noto'g'ri bo'lishi mumkin. Lekin, vahiy orqali tasvirlab (ifodalab) berilgan har bir narsa esa – Allohning so'zi sifatida – mutlaq haqiqat hisoblanadi. Qur'on nafaqat koinotning qanday ishlashini, balki, inson tabiatini (ham chiroyli bir tarzda) tasvirlab beradi⁴. Unda kelgan xabarga ko'ra Alloh taolo biror-bir narsani yaratgan bo'lsa, qo'shimcha ravishda unga o'ziga xos tabiatni hamda uni tartibga solib turuvchi qonun-qoidalarni ham tortiq qilgan. Xullas, shu orqali mazkur yaratilmish narsa butun olamning bir qismiga aylanadi. Masalan, koinotni olaylik. Undagi barcha mavjudotlar o'zlariga xos va mos bo'lgan “qonun-qoidalar” (yoki tartib-intizom)ga og'ishmasdan rioya qilishadi. Demak, ular ham qaysidir ma'noda Allohning irodasiga bo'ysunuvchi “musulmonlar”dan hisoblanadi. Inson Alloh joriy qilgan qonun-qoidalar bilan qattiq bog'langan. Shuningdek, Odam bolasiga Xudoning buyruqlariga itoat qilish yoki bajarmaslik tanlovi⁵ ham berilgan. Aslida bu – odamlarning Xudoga bergan dastlabki ahdigaga ishora qiladi⁶. Shuning uchun haqiqiy musulmon bo'lishlari uchun ular ham Qur'onda kelgan ko'rsatmalarga muvofiq harakat qilishlari (aniqrog'i yashashlari) lozim. Islom iymon-e'tiqod masalalarida ko'r-ko'rona ergashishlikdan qaytaradi (ya'ni, islomiy qonun-qoidalarga rioya qilishda, inson imkon qadar

⁴ Bu haqda “Fussilat” surasi, 53-oyatda: **“Biz ularga ham ufqlardagi, ham o'z nafslaridagi oyat-belgilarimizni ko'rsatamiz. Toki ularga Uning haqligi ravshan bo'lsin. Sening Robbing har bir narsaga shohid ekanligi kifoya qilmasmidi?!”** deya marhamat qilingan. Fazilatli shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf ushbu oyati karima sharhida quyidagilarni aytib o'tgan: “Darhaqiqat, o'tgan davr ichida Alloh taolo odamlarga ufqlarda, atrof-javonibda ko'plab ajoyibotlarni anglatib qo'ydi, o'sha belgilarni o'rgangan odamlar Qur'onning haq ilohiy kitob ekanini tan olib, musulmon bo'lmoqdalar. Yershunos, osmonshunos, tabiatshunos, hayvonshunos va boshqa turli soha olimlari Allohning ufqlaridagi oyat-belgilarini o'rganib, Alloh taolaga iymon keltirmoqdalar. Shuningdek, insonning o'zini o'rgangan olimlar ham Qur'onni tan olmoqdalar”. Maqolada iqtibos keltirilgan barcha oyatlarning o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasini (va izohi) shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning “Tafsiri Hilol” (Toshkent – 2008, tuzatilgan va qo'shimcha qilingan ikkinchi nashr) asaridan olindi.

⁵ Qur'oni Karimning “Shams” surasi, 7-10-oyatlarida: **“Va nafs bilan va uning bekam-ko'st qilib yaratilishi bilan qasam. Bas, u(nafs)ga fujurini va taqvosini bildirdi. Batahqiq, kim u(nafs)ni poklasa, yutuqqa erishadi. Va batahqiq, kim u(nafs)ni kirlasa, noumid bo'ladi”**, deya marhamat qilingan.

⁶ Qur'oni Karimning “A'rof” surasi, 172-oyatida esa: **“Robbing Bani Odamning umurtqa pog'anasidan, qiyomat kuni, bundan g'ofil edik, demasliklaringiz uchun, zurriyotlarini olib, o'zlariga o'zlarini guvoh qilib: “Robbingiz emasmanmi?” deganida, “Xuddi shunday! Guvoh bo'ldik!” deganlarini esla”**, deya marhamat qilingan. Mazkur oyat sharhida ulamolar quyidagilarni aytishgan: “Alloh taolo O'ziga ma'lum bo'lgan bir paytda, davri qiyomatgacha dunyoga keladigan barcha odamlarni otalarining sulbidan urug'liklarni chiqarib olgan va o'sha urug'liklarga “Robbingiz emasmanmi?!” deb savol bergan. Mazkur ilohiy savolga hamma zurriyotlar: “Xuddi shunday”, ya'ni, albatta, sen Robbimizsan, “guvoh bo'ldik”, deb javob berishgan. Shunga binoan inson urug'lik paytida, ya'ni, ona qorniga o'tganda va inson bo'lib yaralganda, Allohning Robb ekanligini e'tirof etguvchi tabiat sohibi bo'ladi”.



uning asl mohiyatini bilishga intilishi lozim). Qur'onning o'zi ham doimo insonni unda aytilgan narsalar haqida fikr yuritishga da'vat qiladi (shu sabab ham, ko'plab oyatlarda – "shoyadki, aql yuritsangiz, tafakkur qilsangiz", deya ta'kidlangan). Islom ta'limotiga ko'ra inson ikki xil tabiatga ega. Ya'ni, u ham tana, ham ruhdan iboratdir. Biroq, jism ruh kabi (o'ta) muhim emas. Sababi ikkinchisi – shaxsiyatning ichki strukturasi tashkil qiladi. Boshqa narsalar bilan qatorda, insonga Alloh taolo ruh (yoki jon) haqida cheklangan bilimlarni berdi. Bu bilim orqali inson, Xudoni va olamdagi barcha narsalarni, shu jumladan o'zini ham bilishi (yaxshiroq tanishi) mumkin. Bir guruh musulmon olimlari esa bu oyatning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, (insonlarni) ruh yoki jon ma'nolariga chuqur kirib borishdan qaytarsalar, ba'zilar esa bu oyatning mazmuni – Muhammad alayhissalomdan ruh yoki jon haqida so'ragan ahli kitoblarga qaratilganligini ta'kidlashgan. Lekin, ular yana: "Bu oyat – musulmon kishi ruh (yoki jon)ning tabiati haqidagi haqiqiy bilimga ega bo'la olmaydi hamda islom shariati sukut saqlaydigan (har qanday) ilmga ega bo'lish mutlaqo mumkin emas, degan ma'noni ham ifodalamaydi", deydilar. Insondagi ilm(-ma'rifat) o'rni (yoki o'chog'i) Qur'onda tilga olingan qalb, nafs, ruh va aql kabi metafizik unsurlar bilan bevosita bog'liqdir. Bilim (va ruh) inson tabiatiga xos bo'lib, ikkisi birgalikda fitrat (*arabcha al-fitrah*) deb nomlanadi hamda insonning butun umri davomida xulq-atvorini boshqaradi. Qur'on ilm(-ma'rifat) hosil qilishning turli usul (va yo'l)lariga – ya'ni, xulosa chiqarish (yoki xulosalash), kuzatish va bevosita (yoki to'g'ridan-to'g'ri) tajribaga ishora qiladi. Musulmonlar Alloh taolo Odamni (umuman, inson zotini) O'zining yer yuzidagi xalifasi (ya'ni, o'rinbosari) etib yaratganiga (yoki tayin qilganiga) ishonishadi. Erkaklar va ayollar birinchi o'rinda o'zlarini (nafslarini) yaxshi anglashlari, Qur'on va Sunnatda kelgan (ya'ni, ularda belgilab berilgan) shaxsiyatga erishishlari bilangina shu maqomni – ya'ni, haqiqiy o'rinbosarlik mavqesini topa olishadi. Musulmon o'z tabiatining sirlarini nafaqat tafakkur va ilm bilan, balki ilohiy kalom orqali kashf qilishga, Qur'on oyatlarini tafakkur qilib, hikmatga erishishi vojibdir. Xudoning oyat-alomatlari haqida fikr yuritish ham ilmiylik hisoblanadi. Chunki, bu ham beshta sezgi va kognitiv qobiliyatlarning kuzatishlariga asoslanadi. Bu ilmiy tushuncha oxir-oqibat insonning axloqiy tabiatini o'zgartirishi zarur, busiz (ya'ni, tafakkur va tadabbursiz) mulohaza yuritish nafaqat befoyda, balki xavfli ham bo'lishi mumkin. So'fiylarning Muhammad alayhissalomga nisbat berilgan "**Kim nafsini tanisa, Robbisini (ham) tanibdi**", degan mashhur hikmati bor. Islom ta'limoti insonning eng zo'r shaklu shamoyilda yaratilganligini, lekin haqiqiy iymon-e'tiqod va to'g'ri amallarsiz u – bechora hayvonlardan ham battaroq yomon ekanini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Qur'on Allohni unutganlar o'z nafslarini ham unutib qo'yishi mumkinligi haqida ogohlantiradi. Bu narsa alohida shaxslar uchun ham, jamiyatlar uchun ham amal qiladi. "Eslash" (ya'ni, o'z nafsini unutmaslik, uni yaxshiroq tanish) sekulyarizatsiyaga olib keladigan "unutishdan" farqli o'laroq shaxsiyatning mustahkamlanishini ta'minlaydi.

References:

1. See for instance, Noel W. Smith, *Current systems in psychology: history, theory, research, and applications* (Plattsburg: New York, 2001), p. 430. See also a book review of this text by A. Haque, *American Journal of Islamic Social Sciences*. 18:4 (2001), pp. 143–149.
2. G. Allport. *Pattern and Growth in Personality* (New York: Holt, 1961), p. 28.



3. M.B. Badri, *Contemplation: An Islamic psychospiritual study* (London: International Institute of Islamic Thought, 2000), p. 7.
4. F. Rahman. Major themes of the Qur'an (Kuala Lumpur: Islamic Book Trust, 1989).
5. S.M.N. al-Attas, The meaning and experience of happiness in Islam (Kuala Lumpur. Institute for Islamic Thought and Civilization, 1993).
6. "Psychology from the islamic perspective" – Aisha Utz, 2010.